

**TOLALI EKINLAR ILMY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.30/30.11.2021.T.141.01
RAQAMLI ILMY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
M.T.O‘ROZBOYEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK
MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI**

AXMEDOV XAMIDULLA ABDUXOSHOVICH

**TOZALASH KAMERALI ARRALI JIN PARAMETRLARINI HISOBLASH
VA KONSTRUKSIYASINI ISHLAB CHIQISHNING ILMY-TEXNIK
ECHIMLARI**

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации
Contents of the abstract of doctoral (DSc) dissertation

Axmedov Xamidulla Abduxoshimovich

Tozalash kamerali arrali jin parametrlarini hisoblash va
konstruksiyasini ishlab chiqishning ilmiy-texnik
echimlari..... 3

Ахмедов Хамидулла Абдухошимович

Научно-технические решения разработки конструкции и
расчётов параметров пильного джина с очистительной
камерой..... 29

Akhmedov Khamidulla Abdukhoshimovich

Scientific and technical technical solutions for the development of
the design and calculation of the parameters of a saw gin with a
cleaning chamber..... 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 61

**TOLALI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.30/30.11.2021.T.141.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
M.T.O'ROZBOYEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK
MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI**

AXMEDOV XAMIDULLA ABDUXOSHOVICH

**TOZALASH KAMERALI ARRALI JIN PARAMETRLARINI HISOBLASH
VA KONSTRUKSIYASINI ISHLAB CHIQISHNING ILMIY-TEXNIK
ECHIMLARI**

**05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va
robototexnika tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.4.DSc/T503 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi M.T.O'rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) "Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti" huzuridagi ilmiy Kengash web-sahifasida (www.paxtasanoatilm.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Muxammadiev Davlat Mustafaeovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rosulov Rozimurod Xasanovich
texnika fanlari doktori, professor

Axmedov Azamat Xaitovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Egamberdiyev Fazliddin Otaqulovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc.30/30.11.2021.T.141.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "27" avgust soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY O'zPITI ko'chasi, PSUYaITI. Tel.: (+99871) 207-04-03; faks: (+99871) 256-04-21; e-mail: info@paxtasanoatilm.uz (Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti binosi, 1-qavat, majlislar zali).

Dissertatsiya ishi bilan Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (ro'yxatdan o'tgan 44-son). 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY O'zPITI ko'chasi, PSUYaITI. Tel.: (+99871) 207-04-03.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "18" avgust kuni tarqatildi.
(2025 yil "18" avgust 44-raqamli reysr bayonnomasi).



T.M.Quliyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., prof.

M.R.Mo'minov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d., k.i.x.

R.Sh.Sulaymanov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda paxta xom-ashyosi to'qimachilik sohasi uchun muhim hisoblanadi. Zavod va fabrikalarda turli xildagi sanoat buyumlari va tibbiy mahsulotlar, shu bilan birgalikda an'anaviy gigiena vositalari ishlab chiqarishda keng foydalanib kelinmoqda. Jahon statistik sayti ma'lumotlari bo'yicha 2024 yilda jahon bo'yicha paxta ishlab chiqarish taxminan 25,65 million tonnani tashkil qilgan. Bu 2030 yil uchun kutilayotgan 29 million tonna bilan taqqoslaganda, taxminan 13% o'sish rejalashtirilgan¹. Shuning uchun paxta xom ashyosini sifatli qayta ishlash uchun ish sifati yuqori hamda energiya-resurstejamkor texnika vositalari va qurilmalaridan foydalanib raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda paxta xom ashyosini qayta ishlash uchun resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy echimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Paxtaga ishlov beruvchi rivojlangan mamlakatlarda paxta xomashyosini tabiiy xossalarini saqlab qolgan holda qayta ishlash tannarxini pasaytirish maqsadida resurstejamkor mashinalar va paxta tozalash korxonalarini uchun ehtiyot qismlarni yaratish va takomillashtirishga alohida e'tibor berilmoqda hamda mazkur sohadagi tadqiqotlar ustuvor hisoblanadi. Shu bilan birgalikda yangi takomillashtirilgan arrali jin ishchi kamerasini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri bo'lib, ushbu muammolarni bartaraf qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda paxtachilik tarmog'ga oid fan va texnikaning yutuqlaridan keng foydalanish orqali yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish, mavjudlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Respublikamiz paxta tozalash sanoatidagi mashinalar konstruksiyalarining samaradorligini oshirish uchun yangi ishlanmalar va ilmiy izlanishlar zarur bo'lganligi sababli, respublikamizda paxtani dastlabki ishlash uchun mashina va agregatlarning butlovchi qismlarining resurstejamkor konstruksiyalarini yaratish yuzasidan keng qamrovli chora tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022—2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida», jumladan, «...jadal iqtisodiy o'sish mamlakatimiz ilmiy tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarining ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyati natijalarini tijoratlashtirish uchun ilg'or yutuqlardan samarali foydalanish»² бўйича муҳим вазифалар белгилаб берилган. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida bu ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati va raqobatbardoshligini oshirishni talab qiladi, bu esa texnologik mashina agregatlari va qismlarining energiya va resurstejamkorligiga bevosita bog'liq. Shu munosabat bilan paxta tozalash sanoatini zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qayta jihozlash maqsadida texnologik mashinalarni takomillashtirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, paxta tozalash mashinalari ishchi qismlarining energiya va

¹ <https://www.mordorintelligence.com>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillardagi mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

resurstejamkorligida aniq yig'ilgan butlovchi qismlar va to'g'ri ishlaydigan texnologik oraliq va ketma-ketliklarda mashinalar bir tekis ishlashi va yuqori sifatli paxta mahsulotlari ishlab chiqarilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022—2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovasion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida” va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 03-martdagi 253-son “Paxta, to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida”gi qarori hamda sohaga oid tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³.

Jahonda tola ajratgich mashinalari uchun takomillashtirilgan ishchi kameralarning konstruksiyasini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning etakchi ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan Agricultural Research Service, McCleskey Saw and Machine, Lummus, Continental eagle (AQSh), Shandong Swan Cotton Industrial Machinery Stock Co.,Ltd (Xitoy), Nipha, Bajaj Steel Industries Limited (Hindiston) shuningdek Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instituti, «Paxtasanoat ilmiy markazi» AJ, “Paxtajin KB”, Mexanika va inshootalar seysmik mustahkamligi instituti (O'zbekiston)larida tola ajratgich mashinasini rivojlantirish orqali chiqayotgan mahsulot sifatini oshirish bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Dunyoda olib borilgan tola ajratgich mashinalari uchun ishchi kameralar konstruksiyasini ishlab chiqishning texnika va texnologiyalarini takomillashtirishga oid tadqiqotlar natijasida bir qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: tola ajratish jarayoniga sarflanayotgan xarajatlarni optimallashtiruvchi, tola shikastlanishi va mashinalardan foydalanishni minimallashtiruvchi “IntelliGin” boshqarish tizimi yaratilgan (Agricultural Research Service, AQSh); arrali silindrning kolosnik panjaraga tegishini (titrashini) 0,005 mm gacha kamaytirish hisobiga uning uzoq ishlashini va arralarni almashtirish vaqtini kamaytiruvchi (McSam uskunasi) avtomatik rostlash usuli ishlab chiqilgan (McCleskey Saw and Machine, AQSh); Afina va Axmadobod sanoat ishlab chiqaruvchilari Lummus, Bajaj Continental arrali tola ajratuvchi mashinalari uchun – kolosnik panjara, diskli arra, arrali silindr, alyuminiy qistirmalari kabi ehtiyot qismlarni halqaro sifat standartlariga muvofiq ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan (KOMET, Gresiya), (C.N.INDUSTRIAL PRODUCT, Hindiston); tayanch joylarini titrashini kamaytirish maqsadida kolosnik

³ Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации осуществлен на основе следующих источников: <https://instmech.academy.uz>, <http://lummus.com>, <http://cotton.org>, <http://niphaindia.com>, <http://www.sdmj.com>, <http://ginningspares.com>, <https://www.researchgate.net>, <https://phoenixp3.com>, <https://komet.gr>

va brus oralig'iga turli qayishqoq materiallar o'rnatilgan, mahalliy arrali jin ishchi kamerasini turli rabijsga ega fartuk va yuqori brus qismlari hamda xom ashyo valigini tezlatgichning turli ko'rinishlari ishlab chiqilgan (Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instituti, O'zbekiston); arrali jin ishchi kamerasini fartuklarini maxsus uskuna yordamida qizdirish yordamida jinlash jarayonlarini jadallashtirish usuli ishlab chiqilgan («Paxtasanoat ilmiy markazi» aksiyadorlik jamiyati, O'zbekiston); arrali tola ajratish ishchi kamerasining dinamik, energetik va mustahkamlik ko'rsatkichlarini hisoblash usullari va ularni takomillashtirilgan qismlarini texnologiyasi ishlab chiqilgan (Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti, O'zbekiston).

Dunyoda tola ajratgish mashinalari uchun qurilma va texnologiyalarni yaratish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ishchi kameralar ko'ndalang kesimi yuzasini va uning hajmini o'zgartirish; xom ashyo va chigit valiklarini majburiy aylantirish; tola ajratgish jarayonlariga sarflanayotgan harajatlarni optimallashtirish, tola shikastlanishi va mashinalardan foydalanishni minimallashtirish uchun avtomatik boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish; tola ajratgish jarayonlarini barqarorlashtirish va mashinalarning ishchi qismlarini energiya va resurslarni tejash uchun konstruktiv echimlar izlash shular jumlasidandir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunda paxta sanoati texnologik mashinalarini takomillashtirish, yangi samarali konstruksiyalarni ishlab chiqish, paxta tolasining tabiiy sifat ko'rsatkichlarini saqlagan holda paxta sanoati texnologik mashinalarining ishchi organlarini va harakat rejimlarini aniqlash masalalari bo'yicha bir qator xorij olimlari, jumladan Ye. Whitney, S.Z.Hall, T.Elliot, S.E.Hughs, R.N.Rakoff, A.V.Stanley, R.G.Hardin, P.A.Funk va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Mamlakatimizda ham bir qancha olimlar arrali jin mashinasining ish unumdorligini oshirish, resurstejamkor qismlar bilan jihozlash va jin mashinasiga sarflanayotgan energiya sarfini kamaytirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Bunday olimlarga B.A.Levkovich, G.I.Boldinskiy, G.I.Miroshnichenko, R.V.Korabelnikov, N.G.Gulidov, R.G.Maxkamov, I.T.Maqsudov, M.Tillaev, A.Ismailov, M.Agzamov, B.M.Mardonov, X.T.Axmedxodjaev, Sh.U.Raxmatqoriev, A.Djuraev, R.M.Murodov, D.M.Muxammadiev, S.Z.Yunusov, Ye.A.Normatov va boshqalarni misol qilib aytish mumkin.

Mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlarni tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, paxta xomashyosini qayta ishlash, xususan arrali jin mashinasining muhim detallarining resurstejamkorligini va ish unumdorligini oshirish va ularni ishlab chiqarishning texnologik ko'rsatkichlari masalalari etarli darajada o'rganilmaganligini ko'rsatdi. Xorijda ishlab chiqarilgan arrali jin ishchi qismlarini to'g'ridan-to'g'ri mahalliy arrali jinlarda foydalanishning imkoni yo'q. Shu boisdan yangi konstruksiyali mahalliy arrali jin ishchi qismlarining parametrlarini asoslagan holda yurtimizda ishlab chiqarish vaqt taqozosidir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zR FA Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti ilmiy

tadqiqot ishlari rejasining S–OKP–17 “Takomillashtirilgan 138 arrali jin uchun ishchi kamera ishlab chiqish” (2019-2021 yy.) mavzusidagi ilmiy loyiha va № FA-Atex-2018-252 «Paxtani tashlab beruvchi kamerali arrali jin uchun harakat uzatish tizimini takomillashtirilgan qismlari bilan ishlab chiqish» mavzusidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi paxtani dastlabki qayta ishlash texnologiyasi talablariga javob beradigan resurstejamkor tozalash kamerali arrali jinning konstruksiyasini ilmiy texnik echimlari asosini ishlab chiqish orqali mashina ish unumini oshirish va tola sifatini saqlovchi texnologiyalarni takomillashtirishni asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

paxtadan tola ajratish texnologik jarayonlarini tahlili asosida tozalash kamerali arrali jinning resurstejamkor yangi konstruksiyasini ishlab chiqish;

paxtaning kolosnik panjara, tashlab beruvchi baraban yuzasidagi harakatlari matematik modellarini tuzish va xomashyo valigi kinematikasini tadqiq qilish;

tozalash kamerali arrali jin resurstejamkor ishchi qismlarini mustahkamlik ko'rsatkichlarini hisoblash;

mashina agregat tenglamalarini tuzish orqali resurstejamkor tozalash kamerali arrali jin ishchi organlarining dinamik va energetik ko'rsatkichlarini aniqlash va tahlil qilish;

yangi konstruksiyadagi resurstejamkor tozalash kamerali arrali jin samaradorligini laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitlarida aniqlash.

Tadqiqot ob'ekti sifatida arrali jin mashinasining ishchi kamerasi olingan.

Tadqiqot predmeti yangi konstruksiyadagi kolosnik panjara va tozalash kamerasidagi tashlab beruvchi baraban va uning hisob sxemalari hamda paxtaning tashlab beruvchi baraban yuzasidagi va chigitning kolosnik panjara yuzasidagi harakatlarini ifodalovchi matematik modellari hamda arrali jin ishchi kamerasining konstruksiyasi va texnologik ko'rsatkichlari, old brus va fartuk egrilik radiuslari, paxtani jinlash jarayoni rejimlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy mexanika, mashina va mexanizmlar nazariyasi, texnologik mashinalarning ish jarayonlarini matematik modellashtirish, matematik statistikaning tajribalarini rejalashtirish va uning natijalarini qayta ishlash, hisoblash matematikasi, matematik statistikaning rejalashtirish va tajriba natijalarini qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tozalash kamerali arrali jin kolosnik panjarasi va tashlab beruvchi barabanda paxta harakatini modellari qurilgan va shu modellar natijari asosida geometrik hamda kinematik parametrlari asoslangan.

tolajaratish jarayonida paxtagi ta'sir etuvchi kuchlarni hisobga olinib jin fartugi va brusi yuzasidagi harakatini ifodalovchi matematik modellari ishlab chiqish orqali xomashyo kamerasining ko'ndalang kesim shaklining ratsional parametrlari yangi konstruksiyadagi tozalash kamerasiga mos ravishda asoslangan.

mashina agregat tenglamasini qo'llash va maqbul qiymatlar bilan hisoblash natijasida jin energetik ko'rsatkichlari va yuritmani ratsional parametrlari orqali ishchi kamera ishlab chiqilgan;

paxtani arrali silindr yuzasiga tashlab beruvchi baraban va arrali silindrning o'zaro samarali joylashuv parametrlari aniqlash orqali yangi konstruksiyadagi arrali jin konsol kolosnik panjarasining mustahkamlik ko'rsatkichlari aniqlangan;

taminlagichdan kelayotgan paxtani tozalash kamerasi orqali arrali silindr yuzasiga uzatish bo'yicha o'tkazilgan nazariy va ko'p faktorli tajribalar asosida arrali jinning energiya samaradorl, resurstejamkor va tola sifatini ta'minlovchi yangi konstruksiyasi yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

arrali jindagi texnologik jarayonni samaradorligini oshirishga qaratilgan ta'minlovchi barabanlar bilan xomashyoni arrali silindrga tashlab beruvchi barabanning konstruksiyasi va parametrlari ishlab chiqilgan;

paxtani tashlab beruvchi baraban yuzasidagi harakatining matematik modeli asosida barabanning maqbul diametri 145mm, paxtani barabanga kelib tushish burchagi 600 va baraban bilan arrali silindr o'qlari orasidagi masofa 0.252 m. bo'lishi tajribalarda aniqlangan;

tadqiqot natijasida ko'p marta ishlatiladigan almashinuvchi element o'rnatilgan va qotirish mustahkamligi yuqori bo'lgan hamda tozalash kamerali arrali jin ishchi kamerasi konstruksiyasiga mos bo'lgan po'lat konsol kolosnik panjarasi ishlab chiqilgan. Bunda tayanch reaksiya kuchi 3.5 martaga va normal kuchlanish esa 3.4 martaga kamayganligi aniqlangan.

texnik echimlarning yangiligi O'zbekiston Respublikasining IAP 07522 va IAP 07202 patentlari bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertasiyada shakllantirilgan ilmiy tamoyillar, xulosalar va tavsiyalar, nazariy va tajribaviy tadqiqotlarning bir biriga mos kelishi, aprobeziya va joriy qilinishdagi natijalar, shuningdek natijalarni solishtirish, baholash mezonlariga ko'ra ularning adekvatligiga, o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari va ularning ko'rib chiqilayotgan fan sohasidagi ma'lumotlariga qiyosiy tahlili bilan izohlanadi. Ishchi kamera profili va konsol kolosnik tadqiqotlari nazariy va amaliy tajribalar asosida tadqiq etildi hamda taqqoslandi, ularning farqi 5% dan oshmaganligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalarini ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijasining ilmiy ahamiyati tashlab beruvchi baraban yuzasidagi paxtaning va yangi konstruksiyadagi konsol kolosnik yuzasidagi chigitning harakat qonunlari, tozalash kamerali arrali jin mashina agregatining dinamik va energetik ko'rsatkichlari, kolosnikning mustahkamlik ko'rsatkichlari hamda paxtadan tolani ajratish jarayonida xomashyo valigining old brus va fartuk yuzasidagi harakat qonuniyatlarini tadqiq qilish orqali arrali jin ishchi kamerasining takomillashtirilgan konstruksiyasi hamda xomashyo valigining kinematik tahlil usuli ishlab chiqilganligi va arrali jin mashina agregatining dinamik hamda energetik ko'rsatkichlari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotlarning amaliy ahamiyati resurstejamkor qismlar bilan jihozlangan arrali jin ishchi kamerasining va sinov - tajribalar asosida paxta tolasini sifatini saqlagan holdagi energiya sarfini 7% kamayganligi va ish unumining 15 % ga oshirilganligi maqbul ko'rsatkichlari tavsiya qilinganligi va ishlab chiqarishga qo'llash imkoniyatlari ishlab chiqilganligi hamda paxtadan tolani ajratish jarayonida

xomashyo valigining kinematik tahlil qilish moslamasining yaratilganligi hamda yuqori ish unumdorligida ham sifatli tola olishga imkon beruvchi, elektr energiya tejamkor, iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lgan tola ajratish jarayonini jadallashtirishga qaratilgan arrali jin ishchi kamerasi shaklining konstruksiyasi va texnologiyasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tozalash kamerali tola ajratgich mashinasi uchun takomillashtirilgan ishchi kameraning resurstejamkor konstruksiyasini ishlab chiqish natijalari asosida:

paxta tozalash korxonalari uchun po'lat kolosniklarning yangi konstruksiyasi uchun Intellektual mulk agentligidan ixtiroga IAP 07202 (2022) O'zbekiston Respublikasi patenti olingan. Ushbu konstruksiyalarni qo'llash natijasida yangi konstruksiyadagi kolosnikni brusga mahkamlash reaksiya kuchi mavjud ikki tayanchli kolosnikka nisbatan 3,5 martaga oshirish, normal kuchlanish esa 3,4 martaga kamaytirish imkoni yaratilgan;

tozalash kamerali arrali jin ishchi kameraning yangi shakli «Andijon 1-son paxta tozalash» korxonasida joriy etilgan («O'zpaxtasanoat» AJning 2020 yil 30 iyuldagi 03-18/2055-son ma'lumotnomasi). Natijada ishchi kamera shaklining yuzasi 25,5% kamayishi hisobiga arrali jin ish unumdorligini 12,5% oshirishga va energiya sarfini 8,8% kamaytirishga erishilgan;

“APK Bo'ka” MChJ tizimidagi Bo'ka paxta tozalash korxonasida takomillashtirilgan arrali jin ishchi kamerasi ishlab chiqarishga joriy qilingan (“APK Bo'ka” MChJ tizimidagi Bo'ka paxta tozalash korxonasini joriy etish bo'yicha sinov bayonnomasi”. 2023 yil 10 oktyabr. O'zbekiston paxta-to'qimachilik uyushmasi klasterlari ma'lumotnomasi” 2023 yil 21 dekabrda 03/22-1104-son). Natijada arrali jinning yangi konstruksiyadagi ishchi kameraning kinematik, texnologik, konstruktiv va energetik ko'rsatkichlarining muqobil qiymatlarini aniqlash imkoni bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta Respublika ilmiy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarini e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining fan doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 12 ta, shundan xorijiy jurnallarda 5 ta maqola chop etilgan va O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining ixtirosiga 2 ta patent olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 181 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, ob'ekt hamda predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnikasini rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot

natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Arrali jinlash sohasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida MDH davlatlari va chet el arrali jin konstruksiyalari bo'yicha tahlil amalga oshirilgan. Mahalliy va chet elda ishlab chiqarilgan arrali jin konstruksiyalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, paxta xom ashyosi to'g'ridan-to'g'ri arrali silindr yuzasiga uzatiladi, shuningdek, chet el arrali jinning arrali disklari diametri 406 mm ni tashkil etadi.

Paxtani jinlash jarayoni, kolosniklarni brusga briktirish konstruksiyasiga va kolosniklar orasidagi texnologik tirqish masofasigiga bog'liq. Arralararo oraliq masofani kamaytirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatdiki, chigitni ishchi kameradan chiqarish muammosi hal etilmaganligi sababli arrali jin konstruksiyasini takomillashtirishga yondoshishda xatoliklar kuzatilgan.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yurtimiz hamda xorijda ishlab chiqarilgan arrali jinlar konstruksiyalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, kolosniklar, arrali disklar eyilishi, arrali silindr elektr energiya sarfini kamaytirish uchun paxtani dastlab arrali silindrga tashlab beruvchi baraban yordamida uzatish kerak (AQSh, Xitoy, Hindiston).

Binobarin, keyingi izlanishlar konstruktiv va texnologik parametrlari aniqlangan tashlab beruvchi baraban va kolosnik panjaralar asosida arrali jin ishchi kameraning ratsional profilini aniqlashga qaratilishi kerak. Tadqiqotlar natijasida ishning maqsadi va vazifalari belgilangan.

Dissertatsiyaning «**Tozalash seksiyasidagi tashlab beruvchi baraban qurilmasini tadqiq qilish**» deb nomlangan ikkinchi bobida kolosniklar, arrali disklar eyilishi va elektrenergiya sarfini kamaytirish uchun paxta xom ashyosini arrali silindrga to'g'ridan-to'g'ri soat strelkasiga teskari yo'nalishda tashlab beruvchi baraban yordamida uzatish masalasi ko'rib chiqilgan bo'lib, baraban ostiga kolosniklar o'rnatilgan, bu esa paxta xom ashyosini tozalash va jinlangan chigitni ajratishni ta'minlaydi (1-rasm).


Taklif etilayotgan tashlab beruvchi barabanli arrali jinning samarali ishlashi uchun, berilgan ish unumdorlikda ishchi kameraga paxtani bir tekisda uzatishni va ta'minlash uchun quyidagi vazifalarni hal etish zarur:

- 1) paxta xom ashyosining qoziqli baraban yuzasidagi hamda arrali silindr tishiga kelib tushguncha bo'lgan harakatlarining matematik modellarini ishlab chiqish va uning harakatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;


- 2) qoziqli barabanning aylanish chastotasi va muqobil diametrini tanlash, ishchi kameraga paxtani bir maromda uzatish, arrali silindr yuzasiga paxtaning kelib tushish burchagi va uning ish unumdorligini aniqlash;

- 3) arrali silindr va tashlab beruvchi barabanni matematik modellashtirishdan foydalangan holda val o'qining egilishi, ko'ndalang kuch eguvchi momentining epyurasini qurish, uning aylanishining kritik tezligini aniqlash va tashlab beruvchi barabanni buralishdagi mustahkamlikka hisoblashni amalga oshirish.

Ko'rib chiqilayotgan hisoblash sxemalari ikkita alohida qismlardan tashkil topgan. Birinchisi paxtaning tashlab beruvchi baraban qoziqlarining yuzasida amalga oshiriladi (2-rasm).



1-rasm. Tashlab beruvchi barabanli arrali jin sxemasi



2-rasm. Tashlab beruvchi baraban yuzasidagi paxta harakatini hisobiy sxemasi

Ikkinchisi esa paxta qoziqli barabandan uzilib arrali silindr yuzasiga etib borguncha bulgan harakatga muljallangan.


Hisoblash sxemasi asosida qoziqli baraban yuzasida paxta xom ashyosinning (1) va qoziqli barabandan uzilishida paxtaning harakatining (2) differensial tenglamalari tuzilgan:

$$\ddot{s} = \frac{d^2 s}{dt^2} = \left[\frac{K^* (\omega R)^2}{m} + 2\omega \dot{s} + g \sin(\omega t + \varphi_0 - \alpha) - \omega^2 R \sin \gamma \right] - K_{mp} \left[\frac{\dot{s}^2}{R} + g \cos(\omega t - \varphi_0 - \alpha) - \omega^2 R \cos \gamma \right]. \quad (1)$$


$$\left. \begin{aligned} \frac{d^2 x}{dt^2} &= -\frac{(K^* \cdot V_x^2) \cdot \sin(\varphi_1)}{m}; \\ \frac{d^2 y}{dt^2} &= -\frac{(K^* \cdot V_y^2) \cdot \cos(\varphi_1)}{m} - g; \end{aligned} \right\} \quad (2)$$

Tadqiqotlar natijasida 114° burchak ostida va 0.2667 m/s nisbiy tezlikda paxta xomashyosining tashlab berish zonasidagi harakatidan foydalanib, arrali jin tashlab beruvchi barabanining o'lchamlari va kinematikasi aniqlangan. Arrali silindrga nisbatan 1°02' da arrali silindr yuzasiga tushishdan oldingi tezligi 2.562 m/s ni tashkil etadi ($d_x=0.2365$ m; $d_y=0.08969$ m). Tashlab beruvchi baraban (Ø145) va arrali silindr (Ø320) orasidagi masofa esa $a_w=0.25294$ m ni tashkil etadi (3-6-rasm).


Shuning uchun bu parametrlar tashlab beruvchi baraban va arrali silindrning o'zaro joylashishida o'lchamlarni aniqlash uchun tajribaviy tadqiqotlar o'tkazishda va tayyorlashda hisobga olingan.




3-rasm. Tashlab beruvchi baraban yuzasiga paxtaning tushish burchagiga bog'liq holda paxta troektoriyasining o'zgarishi



4-rasm. Ta'minlagich ish unumdorligi va ta'minlash valiklarining aylanish chastotasiga bog'liq holda paxta troektoriyasining o'zgarishi



5-rasm. Tashlab beruvchi baraban diametriga bog'liq holda paxta troektoriyasining o'zgarishi



6-rasm. Tashlab beruvchi baraban aylanish chastotasiga bog'liq holda paxta troektoriyasining o'zgarishi

Tashlab beruvchi barabanni hisobiy sxemasi va dastlabki ma'lumotlari aniqlangan. Tashlab beruvchi barabanning barqaror ish tartibini ta'minlash va rezonans jarayonini oldini olish uchun uning rejimini aylanish tezliklari aniqlangan va tebranish shakllari qurilgan. Tashlab beruvchi barabanning birinchi, ikkinchi va uchunchi kritik tezliklarining hisobiy miqdorlari mos ravishda quyidagilarni tashkil etadi: 380.67, 1513.3 va 3353,3 rad/s.

Dissertatsiyaning «**Yangi konstruksiyadagi tozalash seksiyali arrali jin ishchi kamerasing nazariy va tajribaviy tadqiqotlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida arrali jin fartugi yuzasidagi xomashyo valigi harakat tenglamasini tuzish uchun, 7-rasmda keltirilgan hisobiy sxemadan foydalanilib fartuk zonasidan to taroq yuzasidan uzilishigacha bo'lgan xomashyo valigi harakati o'rganib chiqilgan.


Harakatning hisobiy sxemasi, radiusi R va boshlang'ich burchak φ_0 ga, hamda t vaqt ichida S siljishga ega bo'lgan quyi fartuk yuzasida o'zgarmas burchak tezlik ω bilan aylanib turgan xomashyo valigi massasi m dan iborat.

Normal reaksiya kuchini $O_1\tau$ o'qiga proeksiyalaganda (7-rasm) va massalarni qisqartirganda taroqli quyi fartuk yuzasidan harakatlanayotgan xomashyo valigi harakati tenglamasini olamiz


$$\ddot{s} = \frac{d^2 s}{dt^2} = g \sin(\omega t + \varphi_0) - K_{mp} \left[-2\omega \dot{s} + g \cos(\omega t + \varphi_0) + \frac{\dot{s}^2}{R} \right]. \quad (3)$$

Quyi fartuk yuzasida xomashyo valigining harakati tenglamasi (3) joriy qilinganda YeHM da fartuk egriligining turli radiuslarida va taroq o'qiga nisbatan fartukning burilish burchagi β ga bog'liq ravishda (8-rasm) xomashyo valigi nisbiy tezligining o'zgarishi grafiklari qurilgan.

Arrali jin fartugining kinematikasi va o'lchamlarini tadqiq qilish natijasida xomashyo valigi harakatidan foydalanib (fartuk egrilik radiusi – 240 mm, aylanish chastotasi – 78 min^{-1} , fartukning o'qiga nisbatan burilish burchagi – $\beta=10^\circ$) tashlash zonasida xomashyo valigining nisbiy tezligi 0,207 m/s ekanligi aniqlandi, bu esa burchak $\beta=0^\circ$ bo'lgandagidan 40% ga yuqori.



7-rasm. Tarozli quyi fartuk yuzasida xomashyo valigi harakatining hisobiy sxemasi




8-rasm. Fartuk egriligining turli radiuslarida, taroq o'qiga nisbatan β burilish burchagiga bog'liq holda xomashyo valigi nisbiy tezligining o'zgarishi

Bu parametrlar o'qlararo masofasi $\Delta_x = 0,01734 \text{ m}$; $\Delta_y = -0,023429 \text{ m}$ bo'lganda olingan, fartuk egrilik radiusi ($\text{Ø}480$) markazi bilan arrali silindr ($\text{Ø}320$) orasidagi masofa esa $a_w = 0,25217 \text{ m}$ ni tashkil qiladi.

Old brus yuzasida xomashyo valigining harakat tenglamasini tuzish uchun, 9-rasmda keltirilgan hisobiy sxemadan foydalanib, old brus zonasida xomashyo valigining nisbiy harakati o'rganildi.

Harakatning hisobiy sxemasi massasi m , radiusi R va boshlang'ich burchagi φ_0 ga teng va t vaqt ichida R_1 radius bo'ylab harakat qilayotgan old brus yuzasida doimiy burchak tezlik ω bilan harakatlanayotgan xomashyo valigidan iborat (9-rasm).




9-rasm. Old brus yuzasida xomashyo valigi harakatining hisobiy sxemasi

Normal reaksiya kuchidan foydalanib old brus yuzasidagi xomashyo valigi nisbiy tezligi tenglamasini tuzamiz.

$$\ddot{s} = \frac{d^2 s}{dt^2} = -g \sin(\omega t + \varphi_o) - K_{mp} \left[\frac{\dot{s}^2}{R_1} - 2\omega \dot{s} - g \cos(\omega t + \varphi_o) \right]. \quad (4)$$

Old brusning maqbul parametrlarini topish Gauss-Zeydel usulida xomashyo valigining nisbiy tezligining maksimumi me'zoni bo'yicha olib borildi. 10-rasmni tahlili ko'rsatdiki, $X_0=0,05 \text{ m}$; $Y_0=0,05 \text{ m}$ bo'lganda xomshayo valigining burchak tezligi maksimalga etadi, $X_0=0 \text{ m}$; $Y_0=0 \text{ m}$ bo'lganda esa – minimal bo'ladi.




10-rasm. Xomashyo valigining t vaqtga nisbatan burchak tezligining o'zgarishi

Xomashyo valigining kinematikasi va arrali jin ishchi kamerasi old brusining o'lchamlarini tadqiq qilish natijasida xomashyo valigining harakatidan foydalanib (10-rasm), (old brus radiusi $R = 0,168 \text{ m}$, o'rtacha aylanish chastotasi – 72 min^{-1} , old brusning egrilik radiusi va ishchi kameraning markazi orasidagi masofalar $\Delta_a = \sqrt{X_0^2 + Y_0^2} = 0,0236 \text{ m}$, $X_0 = 0,0125 \text{ m}$ – X o'qi bo'yicha old brusning egrilik o'qlari va ishchi kameraning markazigacha masofa; $U_0 = 0,02 \text{ m}$ - U o'qi bo'yicha old brusning egrilik o'qlari va ishchi kameraning markazigacha masofa) tashlash zonasida xomashyo valigining o'rtacha nisbiy tezligi $31,057 \text{ mm/s}$ ekanligi aniqlangan (11-rasm), bu esa $X_0 = 0,05 \text{ m}$; $Y_0 = 0,05 \text{ m}$ bo'lganda-giga nisbatan 13,5% ga yuqori.

Bu parametrlar old brusning egrilik radiusi markazi (168 mm) va arrali silindr ($\varnothing 320 \text{ mm}$) orasidagi masofalarni belgilashga imkon berdi, ular $a_w = 0,28081 \text{ m}$, $\Delta_x = 0,08523 \text{ m}$, $\Delta_y = -0,26757 \text{ m}$ ni tashkil qiladi.

Ma'lumki, kolosnikli panjaradagi kolosniklarning ko'p qismlari ularning qiyshayishi hisobiga arralarga tegishi va kolosnikli panjarani yig'ish xatoligidan kelib chiqadi. Jinning ishlash jarayonida kolosniklarning eyilishi oqibatida ishchi zonada kolosniklar aro tirqishning oshishi va jinlash jarayoning buzulishiga olib keladi.




11-rasm. X_0 va Y_0 masofalarga bog'liq holda Δy nisbiy tezlikning o'zgarishi

Yuqorida keltirilgan kolosniklarning kamchiliklarini bartaraf etish uchun quyidagi konstruktiv va texnologik echimlar taklif etilgan (12-rasm):


1. Kolosnikli panjara brus va kolosniklardan tashkil topgan. Bunda har bir kolosnikka egilgan list shaklda almashtiruvchi element o'rnatilgan bo'lib uning uchi trapesiya shaklda bajarilgan.

2. Brusda 1 kolosniklarni 3 mustahkam va bikr o'rnatish uchun kolosniklarda 3 teshiklar 2 mavjud bo'lib, brus yuzasida esa teshik 2 ochilgan, brusni 1 kolosnik 3 bilan biriktirish uchun to'rtburchak shaklda bajarilgan teshiklar 2 xizmat qiladi.

3. Kolosnik kesimi (13 - rasm) ikkita AB , CD yoy dan tashkil topgan, ularning R_1 va R_2 radiuslari mavjud, B va C nuqtalarda esa BC og'ma tekislik bilan birlashtirilgan, ulaning uchlari esa BE , CF va DG gorizontan chiziqlarga bo'lingan.



12 - rasm. Arrali jin kolosnikli panjarasining sxemasi.



13 - rasm. Chigitning kolosnik yuzasidagi bo'yicha harakat sxemasi.


Kolosnik yuzasida chigitning ishqalanishi hisobga olmasdan $H=h+h_1+h_2$ BE va DG chiziqning shunday nuqtasini topish kerakki, CF chiziqdan pastda h_2 masofada yotuvchi D nuqtada kolosnik yuzasidan chigit chiqib ketsin.

Chigit kolosnik yuzasidan D nuqtasida uziladi, bu erda kolosnikning reaksiya kuchi nolga teng. (Demak $N_3=0$). Demak vazifa N_3 ni aniqlashni talab etadi. D nuqtada chigitga R og'irlik kuchi ta'sir etadi va kolosnik reaksiya kuchi $N_3=0$, uni proektsiyalab, harakat tenglamasi tuzamiz.


$$\frac{mv_1^2}{R_1} = P \cos \varphi - N_3 \quad (5)$$

Chigitni kolosnik panjara yuzasidagi harakatini o'rganish taxlili natijalari, ya'ni chigitni kolosnik yuzasiga tushishi shuni ko'rsatadiki, R_1 radiusni 0,09 dan 0,14 m ga oshishi bilan h_2 balandlik 0,003 dan 0,023 m gacha oshadi, (pri $\beta=36^\circ$) h_1 egilish balandligi 0,033 dan 0,083 m gacha oshishi bilan esa, h_2 balandlik 0,021 dan -0,005 m gacha kamayadi.

Arrali jin kolosnik yuzasidagi bo'yicha chigitning harakatlanish grafigi keltirilgan. Tajribaviy izlanishlar $BS - l_1=0.0896$ m va $CD - l_2=0.0173$ m uzulishida $h_1=0,0527$ m va $h_2=0,0109$ m balandlikda ishchi uzunlikda o'tkazildi, bunda chigitning boshlang'ich tezligi $v_0=0$ m/s ga uchib chiqishda esa $v_1=0,96$ m/s ni tashkil etdi (14-15 – rasmlar).



14 - rasm. Chigitning kolosnik yuzasidan sakrash balandligi h_2 ning R_1 radusiga bog‘liq o‘zgarishi grafigi.



15 - rasm. $\beta = 36^\circ$ bo‘lganida chigitning kolosnik yuzasidan sakrash balandligi h_2 ning h balandlikka bog‘liq Og‘ish balandligiga bog‘liq o‘zgarish grafigi.

Konsol kolosnikning $St3$ dan tayyorlangan va arrali jinning tozalash kamerasi kolosnigining qo‘yidagi hisoblash mustahkamlik xarakteristiklari olingan:


- normal bo‘yicha mustahkamlik sharti $\sigma_{\max} = 1,462 MPa > [\sigma] = 110 MPa$ va urinma kuchlanish bo‘yicha $\tau_{\max} = 0,6 MPa < [\tau] = 50$ egilishda katta zahira bilan ta‘minlangan;
- almashinuvchi element-vint-kolosnik birikmasida vint rezbasi ezilish balandligi $h = 0,126 mm$ ni tashkil etdi;
- tayanchdagi reaksiya kuchi 3,5 marta oshadi, normal kuchlanish 3,5 dan 4,3 martagacha oshadi.

Kolosniklarning amaldagi konstruksiyasi bir marta foydalanish uchun tayyorlanadi, bu esa kolosnikli panjaraning moliyaviy sarfining oshishi va yig‘ishdagi past darajadagi aniqlikka va mustahkamlikka olib keladi.

Dissertatsiyaning «**Tozalash kamerali arrali jin mashina agregatini tadqiq qilish**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida mashina agregati harakat tenglamasidan foydalangan holda elektrodvigatel rotori, arrali silindr, tashlab beruvchi baraban va ta‘minlagich qoziqli barabanlarning notekis aylanishi va chastotasining o‘zgarishi tasmali uzatmaning qayishqoq va dissipativ parametrlariga bog‘liq holda elektrodvigatel, arrali silindr, tashlab beruvchi baraban va ta‘minlagich barabanlarining inersiya momentlari, arrali silindr, tashlab beruvchi baraban va ta‘minlagich qoziqli barabanlarining qarshilik momentlarini qonuniyatlarini topish bo‘yicha izlanishlar olib borilgan.


Ikki barabanli ta‘minlagich va tashlab beruvchi barabanli arrali jin uzatish qurilmalari tasmali uzatmalardan tashkil topgan (16 - rasm).

Mashina agregatining dinamik modeli 17-rasmda keltirilgan, bu erda $\mathcal{I}_D, \mathcal{I}_1, \mathcal{I}_2, \mathcal{I}_3, \mathcal{I}_4, \mathcal{I}_5$ – aylanuvchi massalarning mos ravishda inersiya momentlari, $kg \cdot m^2$; $M_D, M_1, M_2, M_3, M_4, M_5$ – mos ravishda elektrodvigatelning harakatlantiruvchi momenti va arrali silindrning tashlab beruvchi baraban, oraliq val va ta‘minlagichning qoziqli barabaniga ta‘sir etuvchi qarshilik momentlari, Nm ; c_1, s_2, s_3, s_4, s_5 – tasmali uzatmaning bikrligi, Nm/rad ; $\nu_1, \nu_2, \nu_3, \nu_4, \nu_5$ – tasmali uzatmaning dissipatsiya koeffitsientlari, Nms/rad ; $\dot{\phi}_1, \dot{\phi}_2, \dot{\phi}_3, \dot{\phi}_4, \dot{\phi}_5$ – tizimdagi aylanuvchi massalarning burchak tezliklari, s^{-1} ; $i_{D1}, i_{12}, i_{13}, i_{34}, i_{35}$ - tasmali uzatmalarning uzatish nisbatlari.



16 – rasm. Takomillashtirilgan arrali jin kinematik sxemasi

Undan tashqari, elektrodvigatelning sarflaydigan quvvat va notekis aylanishini kamaytirish yo'llarini aniqlash va arrali jinning kinematik va texnologik parametrlarini ta'minlash kerak. Buning uchun yuritmaning dissipativ parametrlari va bo'g'inlarning qayishqoqligini hisobga olish talab etiladi.




17-rasm. Arrali jin mashina agregatini dinamik modeli


Lagranjning II tur tenglamasidan foydalanib, Tashlab beruvchi barabanli arrali silindrning mashina agregat harakatining umumiy ko'rinishdagi differensial tenglamalar tizimi qurilgan:

$$\left. \begin{aligned}
 \mathfrak{I}_D \ddot{\varphi}_D &= M_D - c_1(\varphi_D - i_{D1}\varphi_1) - \mathfrak{e}_1(\dot{\varphi}_D - i_{D1}\dot{\varphi}_1) \\
 \mathfrak{I}_1 \ddot{\varphi}_1 &= c_1 i_{D1}(\varphi_D - i_{D1}\varphi_1) + \mathfrak{e}_1 i_{D1}(\dot{\varphi}_D - i_{D1}\dot{\varphi}_1) - c_2(\varphi_1 - i_{12}\varphi_2) - \\
 &\quad - \mathfrak{e}_2(\dot{\varphi}_1 - i_{12}\dot{\varphi}_2) - c_3(\varphi_1 - i_{13}\varphi_3) - \mathfrak{e}_3(\dot{\varphi}_1 - i_{13}\dot{\varphi}_3) - M_1 \\
 \mathfrak{I}_2 \ddot{\varphi}_2 &= c_2 i_{12}(\varphi_1 - i_{12}\varphi_2) + \mathfrak{e}_2 i_{12}(\dot{\varphi}_1 - i_{12}\dot{\varphi}_2) - M_2 \\
 \mathfrak{I}_3 \ddot{\varphi}_3 &= c_3 i_{13}(\varphi_1 - i_{13}\varphi_3) + \mathfrak{e}_3 i_{13}(\dot{\varphi}_1 - i_{13}\dot{\varphi}_3) - c_4(\varphi_3 - i_{34}\varphi_4) - \\
 &\quad - \mathfrak{e}_4(\dot{\varphi}_3 - i_{34}\dot{\varphi}_4) - c_5(\varphi_3 - i_{35}\varphi_5) - \mathfrak{e}_5(\dot{\varphi}_3 - i_{35}\dot{\varphi}_5) - M_3 \\
 \mathfrak{I}_4 \ddot{\varphi}_4 &= c_4 i_{34}(\varphi_3 - i_{34}\varphi_4) + \mathfrak{e}_4 i_{34}(\dot{\varphi}_3 - i_{34}\dot{\varphi}_4) - M_4 \\
 \mathfrak{I}_5 \ddot{\varphi}_5 &= c_5 i_{35}(\varphi_3 - i_{35}\varphi_5) + \mathfrak{e}_5 i_{35}(\dot{\varphi}_3 - i_{35}\dot{\varphi}_5) - M_5
 \end{aligned} \right\} \cdot \quad (6)$$

Differensial tenglamalar (6) sistemasini YeHM da hisoblashda quyidagi parametrlardan elektrodvigatelning sarflanadigan quvvatini o'zgarishiga bog'liq holda natijalar asosida grafiklar qurilgan; qarshilik momentlari ($M_1=125,4629$; $M_2=1,680576$; $M_4=6,64 \text{ Nm} - 18$ -rasm); qayishqoq-dissipativ parametrlar ($c_1=30700.06$; $s_2=186,82$; $c_3=204.85$; $s_4=s_5=52,93 \text{ Nm/rad}$ va $v_1=157.083$; $v_2=0,662$; $v_3=1.055$; $v_4=v_5=0,188 \text{ N}\cdot\text{s/rad} - 19$ -rasm); tasmali uzatmaning, elektrodvigatelning inersiya momenti ($\mathfrak{I}_D=0.6 \text{ kgm}^2$); arrali silindr ($\mathfrak{I}_1=0.37 \text{ kg m}^2$); Tashlab beruvchi baraban ($\mathfrak{I}_2=0,013 \text{ kg m}^2$); orliq val ($\mathfrak{I}_3=0.01 \text{ kg m}^2$); va qoziqli baraban inersiya moenti ($\mathfrak{I}_4=\mathfrak{I}_5=0.257 \text{ kg m}^2 - 19$ -rasm) haqiqiy parametrlarning oshishida (100%) va kamayishida (-90%).




18-rasm. Arrali silindr M_1 , tashlab beruvchi baraban M_2 va ta'minlagichni qoziqli barabanning M_3 qarshilik momentlariga bog'liq holda elektrodvigatel sarflaydigan quvvatning o'zgarish grafigi



19-rasm. Tasmali uzatmalarning bikrliliklariga $s_1, s_2, s_3, s_4, \%$ bog'liq holda elektrodvigatel sarflaydigan quvvatning o'zgarish grafigi

O'tkazilgan hisoblashlardan ko'rinadiki, qarshilik momenti -90 dan $+100 \%$ gacha oshganda elektrodvigatelga sarflanadigan quvvat mos ravishda arrali silindrda $605,8$ dan $188448,1 \text{ Vt}$ gacha, tashlab beruvchi barabanniki $9513,0$ dan $9627,1 \text{ Vt}$ gacha va ta'minlagich qoziqli barabanda $9025,1$ dan $10115,0 \text{ Vt}$ gacha oshadi,

elektrodvigatel rotorining, arrali silindr, tashlab beruvchi baraban va qoziqli barabanlarning inersiya momenti – 90 dan 100 % gacha oshishi bilan elektrodvigatel sarflaydigan quvvatini o'zgarishi $9568 \div 9684 \text{ Vt}$ gacha o'zgaradi. Shuning uchun bu parametrlar tashlab beruvchi barabanli arrali silindrning va ikki barabanli ta'minlagich energiya safini kamaytirish uchun tajribaviy izlanishlarda va uni tayyorlashda hisobga olish kerak (20 – rasm).




20 - rasm. Elektrodvigatelning \mathfrak{J}_D , arrali silindrning \mathfrak{J}_I , Tashlab beruvchi barabanning \mathfrak{J}_2 , oraliq valning \mathfrak{J}_3 va ta'minlagichning qoziqchali barabanning \mathfrak{J}_4 , inersiya momentlariga bog'liq holda elektrodvigatel sarflaydigan quvvatning o'zgarish grafiqi %



21 - rasm. Ikki barabanli ta'minlagichli va Tashlab beruvchi barabanli arrali jin

Taqqoslash sinovlari natijasida tashlab beruvchi barabanli 30 ta arrali tavsiya etilgan arrali jinning quyidagi ijobiy ko'rsatkichlari keltirilgan: ish unumdorligi 1,4 kg tola arra/soat, yoki 13,2 % oshgan, tola ifloslanganligi 0,28 % ga kamaygan, chigitning shikastlanishi esa 0,19 % ga kamaygan (21 – rasm).

Arrali silindrning dinamik xarakteristikalarini o'rganish uchun biz tizimni jamlangan va taqsimlangan parametrlardan tashkil topgan quyi tizimlardan iborat deb hisoblaymiz. Birinchi quyi tizimning matematik modeli ishdagi materiallarga, ikkinchi quyi tizim ishlardagi materiallarga muvofiq tuziladi.



22 – rasm. 90 arrali silindrning dinamik modeli

Arrali silindrning dinamik modelidan (22 – rasm) kelib chiqib, elektr dvigatelining burchak qo‘chishi (D) mufta orqali 90 arrali silindrning aylanma tebranishlari muhim bo‘lishi mumkin bo‘lgan uzun valiga (AS) uzatiladi.



23 – rasm. Elektr dvigateli va 90 arra silindrning inersiya momentlarini aniqlash jarayoni


Kompyuterda elektr dvigatelinini ishga tushirish va jamlangan parametrlarli 90 arrali silindr valining aylanma tebranishlari dinamikasini o‘rganish uchun uzatma dvigatel xarakteristikasiga ega 90 arrali silindr (11’) mashina agregatining harakat tenglamalari echilgan. Runge–Kuttaning Δt^4 xatolikka ega ikkinchi darajali differensial tenglamalar uchun $S=d^2\varphi/dt^2=F(t, \varphi, \varphi')$ sonli usulidan foydalanilgan.

90 arrali silindrning va elektr dvigatelining inersiya momentlari jismlarning aylanish inersiya momentini aniqlashda foydalaniladigan tezlikni oshirish usuli bilan aniqlangan (23 – rasm.).


